

**MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA SUN'iy INTELEKT IMKONIYATLARIDAN
FOYDALANISH**

Do'stmurodova Mohinur Nurmurod qizi

Talabasi Buxoro Xalqaro Universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-bosqich

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning mакtab ta'lism sohasidagi ahamiyati, imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston va xalqaro tajribalar misolida maktablarda inklyuziv ta'limgni rivojlantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik psixologik hamda korreksion yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mакtabda ta'limg, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, adaptiv o'qitish, innovatsion yondashuvlar, o'ziga xoslik, imkoniyatlar, rekonstruksiya, ijtimoiy integratsiya.

Introduction

Kirish

Inklyuziv ta'limg dunyo miqyosida keng tarqalgan ta'limg shakli bo'lib, hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar ta'limg tizimida tub islohotlarni amalga oshishiga va rivojiga katta hissa qo'shdi. Inklyuziv ta'limgning asosiy maqsadi -barcha o'quvchilarga, shu jumladan nogironligi yoki o'ziga xos ehtiyojlari bo'lganlarga ta'limg olishda teng imkoniyatlar yaratishdir. Maktab ta'limg tizimida inklyuziv ta'limgni rivojlantirish hamda o'quvchilalrغا imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2020-yil 23-sentabr kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining

"Ta'limg to'g'risida"gi qonunida ilk bora "Inklyuziv ta'limg" iborasi qo'llanildi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limgning asosiy maqsadi – nogironligi bo'lgan o'quvchilarni umumiy ta'limg maktablariga jalb qilish va ularning ta'limg olishda teng imkoniyatlarini ta'minlashdir. Nogironligi bo'lgan bolalar va yoshlar uchun barcha to'siqlardan xoli bo'lgan inklyuziv muhitni barpo etish orqali ularning to'liq va sifatli ta'limg olishini ta'minlash masalasi Yangi O'zbekistonda qurilayotgan «Ijtimoiy davlat» tamoyillarini ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo'llash demakdir. Buning uchun mакtab ta'limg tizimini yanada sifatli va hozirgi zamon talabiga mos ravishta, inklyuziv ta'limgni ham o'z ichiga qamrab oluvchi zamonaviy adabtiv tipdagи elektron texnologiyalaridan foydalanish muhim va ahamiyatlidir.

Bugungi kunda maktablarda sun'iy intellektidan foydalanish bir qancha imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ta'limga oid elektron platformalarining yaratilish ham o'quvchi ham o'qituvchi uchun bir qancha qulayliklar va imkoniyatlar deganidir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'limg tizimiga juda katta o'zgarishlar olib kelmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'limg sohasida tatbiq etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish, baholash va mezonlarni yangilash imkonini bermoqda. Ilmiy

tadqiqotlarda keltirilishicha Sun'iy intelekt ta'liddagi yangi paradigma sifatida qaralayotganini tasdiqlamoqda (Woolf, 2010; Baker & Inventado, 2014).

Sun'iy intellekt — bu inson aql-idroki bilan bog'liq funksiyalarni (o'rghanish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish) amalga oshira oladigan algoritmik tizimlardir. Ta'linda SI quyidagi sohalarda ishlatilmoqda:

Intellektual ta'lif tizimlari (ITS)

Adaptiv o'quv dasturlari

Tovushni tanish va tabiiy tilni qayta ishlash

Avtomatik baholash tizimlari

Yuz ifodasi orqali emotsiyal tahlil qilish

Sun'iy intellektning ta'liddagi ilmiy asoslangan afzallikkabi

1. Individual yondashuvning ta'minlanishi

SI o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, xatolari va o'qish sur'atiga qarab individual o'quv rejasini shakllantiradi. Bu Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga mos keladi. Xususan maktablarda bolalarning o'zlashtirish koeffisiyenti turlicha bo'lib, bir sinfda yuqori, o'rtacha, hamda past o'zlashtiruvchi bolalar tahsil oladi, sun'iy intelekt shularni hisobga olgan holda, o'quvchilarning bilim darajalariga qarab test tuzishlari yoki ularni yechishda yordam berishlari, xatolar ustida ishlab ularni tahlil qilish qayi usullar orqali masalani hal qilishga oid darslarni keltirishi mumkin hamda ularga individual tarzda rejalar berib borib kunlik rejimni tashkil qilib borishda ko'maklashadi.

2. Ta'lif sifatini oshirish

Intellektual tizimlar (masalan, Carnegie Learning, Squirrel AI) o'quvchilarga real vaqtli tahlil asosida o'qituvchidan mustaqil mashqlarni bajarish va teskari aloqa olish imkonini beradi. Bu konstruktivizm yondashuvini qo'llab-quvvatlaydi. Bu o'quvchiga o'z ustida yanada ko'proq va chuqur ta'lif olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, suniy intellektning yana bir avzalligi shundaki, masofadan turub turli dasturlarda ishlash hamda yuborgan materiallar va uyga vazifalarigizni mukammal tarzda kutmasdan tekshirib tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. O'qituvchilarning ish yukini kamaytirish

Avtomatik baholash, nazorat ishlarini tahlil qilish va byurokratik jarayonlarni SI orqali optimallashtirish o'qituvchining asosiy vazifalariga e'tibor qaratishiga imkon beradi. Bu tizim ayniqsa maktab ta'lif tizimida kerakli bo'lib, har bir o'quvchini baholab uni joylashitirish yukidan xalos qiladi va avtomatik ravishta bolalalarini baholab ularning bilim darajasini belgilashda kata yordamchi bo'lib xizmat qiladi, yana bir avzallik tomoni ortiqcha qog'ozbozliklardan voz kechishga majbur qiladi, tez va sifatli ishlashni ta'minlab beradi.

Heffernan & Heffernan (2014): SI asosidagi o'qitish tizimlari oddiy elektron darsliklarga qaraganda o'zlashtirishni 20–30% ga oshirganini isbotladi.

UNESCO (2021) ta'linda SI bo'yicha tavsiyanomasida uning teng imkoniyat yaratish va raqamli tafovutni kamaytirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.

Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lif vositalari

Hozirda ta'lifning rivojlanishiga e'tibor qaratish bu asosiy najod deb qaragan holda su'niy intelektni ta'limga olib kirish eng asosiy rivojlanish yechimi deb ko'plab xalqaro va milliy platformalar sun'iy intellektdan foydalangan holda ta'lif vositalarini ishlab chiqmoqda. Quyidagi vositalar maktab ta'linda keng qo'llanilmoqda:

Khan Academy (USA): Sun'iy intellekt asosida individual o'qitish tizimlarini ishlab chiqqan. Squirrel AI (Xitoy): Adaptiv o'qitish algoritmlari yordamida o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab mashg'ulotlar taklif etadi.

Quizziz, Edmentum, Duolingo: Interaktiv mashg'ulotlar va avtomatik baholash vositalariga ega.

Coursera va boshqa global ta'lif platformalari

Bilim Onlayn orqali Coursera kurslariga osongina kirish imkoniyati yaratilgan.

Talabalar va o'qituvchilar turli fanlardan kurslar olinishi mumkin.

Maktab.uz, Eduportal.uz, Olympiad.uz, edu.uz, Kitob.uz kabi turli platformalar orqali onlayn olimpiadalarga tayyorlanish mumkin.

UzEdu Platformasi (O'zbekiston): Raqamli ta'lif resurslarining markazlashgan platformasi, kelajakda sun'iy intellekt integratsiyasi ko'zda tutilmoqda.

EduMarket.uz – masofaviy ta'lif platformasi, lekin inklyuziv ta'lif uchun maxsus xizmatlari yo'q.

- IT Park loyihalari – nogiron yoshlarni dasturlashga o'rgatish bo'yicha turli kurslar tashkil qilmoqda.

"One Million Uzbek Coders" loyihasi. Bu loyiha orqali o'zbekistonlik yoshlarni IT va dasturlash bo'yicha bilim olish imkoniga ega bo'ldi. Inklyuziv ta'lif uchun ushbu dastur negizida maxsus imkoniyatga ega bolalar uchun alohida kurslar ishlab chiqilishi mumkin.

2. Sun'iy intellekt asosida o'qituvchilar va rahbariyat faoliyatini optimallashtirish

Sun'iy intellekt faqatgina o'quvchilarga emas, balki ta'lif muassasasi rahbariyati va o'qituvchilarga ham quyidagi jihatlarda yordam beradi:

- a. O'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish
- b. Dars sifati va metodik yondashuvlarni tahlil qilish
- c. Ta'lif resurslaridan foydalanish bo'yicha analitika
- d. Resurs taqsimoti va yuklamani muvofiqlashtirish

Sun'iy intellektni joriy etishdagi qiyinchiliklar:

Moliyaviy cheklar:

- Al texnologiyalarini rivojlantirish va joriy qilish uchun katta mablag' talab qilinadi.
- Ko'pgina ta'lif muassasalari bunday texnologiyalarni xarid qilish imkoniyatiga ega emas.

2. Pedagoglarning malakasi yetishmovchiligi:

- O'qituvchilarning aksariyati sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha yetarli malakaga ega emas.

- Al texnologiyalaridan foydalanish uchun maxsus o'quv kurslari zarur.

3. Texnologik infratuzilma muammolari

- Internet tezligi va barqarorligi yetarli emasligi sababli, masofaviy ta'lif va Al vositalari

samarali ishlamaydi.

• Al texnologiyalarini qo‘llash uchun yetarli darajada zamonaviy qurilmalar mavjud emas.

4. Maxsus Al dasturlarining kamligi

• O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim uchun Al dasturlarining yetishmovchiligi kuzatiladi

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun tavsiyalar

O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha mo‘ljallangan raqamli strategiyada sun’iy intellektning ta’lim sohasida qo‘llanilishi alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shunga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ta’lim SI strategiyasini ishlab chiqish va joriy etish

2. O‘qituvchilar uchun maxsus SI kompetensiyalari bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish

3. Mahalliy sun’iy intellekt asosidagi dasturlarni yaratish va rivojlantirish

4. Raqamli tengsizlikni kamaytirish maqsadida barcha hududlarni SI vositalari bilan ta’minalash

5. Ilmiy-tadqiqot institutlarida SI asosida dars metodikalarini ishlab chiqish

Xulosa

Sun’iy intellektning maktab ta’lim tizimiga integratsiyasi — bu texnologik yangilik emas, balki metodik yondashuvdagi inqilobdir, ya’ni o’quv jarayonidazamonavi texnologiyalardan to’g’ri va sifatli foydalanish, pedagogik mahorat bilan birga olib borish, o‘quvchilarni bilim o‘rganishga qiziqtira olish, yangi tillarni o‘rganishga undash va eng asosiysi ta’lim jarayonini sifatli o’tkazish eng avvalo o‘qituvchiga bog’liqligidir. SI orqali ta’limga individual yondashuv, o‘qituvchiga yordamchi vosita, interaktiv va energizer metodlar orqali ta’lim olish imkoniyati, samarali boshqaruv, tahliliy va masofaviy hamda mustaqil o‘rganish imkoniyati va inklyuziv imkoniyatlar kiritiladi. Shunday qilib ta’limda ko’plab imkoniyatlarga ega bo’lish uchun sun’iy intelektdan ham foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi qonun”, 2020-yil

2. Woolf, B.P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors. Morgan Kaufmann.

3. Baker, R.S., & Inventado, P.S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics. Springer.

4. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for policy-makers.

5. Heffernan, N., & Heffernan, C. (2014). The ASSISTments Ecosystem: Building a Platform that Brings Scientists and Teachers Together for Minimally Invasive Research on Human Learning and Teaching.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bo‘yicha qarori.

7. UzEdu.uz — Raqamli ta’lim resurslari platformasi (2024-yil).